


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR  
VAZIRLIGI**

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**



**«Tasdiqlayman»**

**Guliston davlat universiteti  
rektori M.Xodjiyev**

**04 " 08 2023 y.**

**TEXNIKUM BITIRUVCHILARINI OLIV TA‘LIM  
MUASSASASI 60710400 – EKOLOGIYA VA ATROF-  
MUHIT MUHOFAZASI (TARMOQLAR VA  
SOHALAR BO‘YICHA) BAKALAVRIAT TA‘LIM  
YO‘NALISHIGA YAKKA TARTIBDAGI SUHBAT  
ORQALI QABUL QILISH UCHUN**

**BAXOLASH MEZONLARI  
VA KIRISH SUHBATI SAVOLLARI**

## Annotatsiya

Mazkur baxolash mezonini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 11 yanvardagi "Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga suhbat asosida o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 17-son qaroriga asosan tayyorlandi.

Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga suhbat asosida o'qishga qabul qilish uchun o'tkaziladigan suhbat jarayonlari uchun tuzilgan na'munaviy savollar mamlakatda o'z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish, bakalavriat ta'lim yo'nalishini tanlashda motivasiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko'rsatish); shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o'qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas'uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o'z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari), tanlangan bakalavriat ta'lim yo'nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi kabi masalalar o'z aksini topgan.

Ushbu baholash mezonini Guliston davlat universiteti kengashi tomonidan tasdiqlangan.

2023 yil " 27 " 07 " dagi 13/1-13 sonli majlis bayoni.

## Kirish

Bugungi kunda ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish davr talabiga aylangan. Ushbu talabdan kelib chiqqan holda, ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlar qabul qilinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni 2020 yil 23 sentyabr kuni qabul qilingan bo'lib, uning maqsadi ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Mazkur Qonunga asosan ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar, ta'lim tizimi, turlari va shakllari aniq belgilab qo'yildi.

Prezidentimizning 2019 yil 6 sentyabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-5812-son Farmonini ijro etish maqsadida qaror bilan quyidagilar tasdiqlandi:

- Uzluksiz boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim to'g'risidagi nizom;
- Boshlang'ich professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan kasb-hunar maktablarining namunaviy ustavi;
- O'rta professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan kollejlarning namunaviy ustavi;
- O'rta maxsus professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan texnikumlarning namunaviy ustavi.

Tizimida kollejlarda va texnikumlarda bo'lgan vazirliklar, idoralar va xo'jalik birlashmalariga tasdiqlangan namunaviy ustav asosida ularning ustavlarini ishlab chiqish hamda ularning faoliyatini ularga muvofiq yo'lga qo'yish topshirildi.

Quyidagilar professional ta'limning asosiy vazifalari hisoblanadi:

- ish beruvchilarning talab va takliflariga asosan kadrlarga bo'lgan real ehtiyojni inobatga olgan holda iqtisodiyot soha va tarmoqlari uchun zarur bo'lgan malakali mutaxassislarni tayyorlash hamda jamiyatning kasblar va mutaxassisliklarga bo'lgan talablarini qondirish;
- mehnat faoliyatida zamonaviy AKTni tatbiq qilish bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlash;
- xorijiy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni rivojlantirish, zamonaviy innovasion o'quv loyihalarini birgalikda amalga oshirish uchun malakali xorijiy mutaxassislarni jalb etish;
- Xalqaro tasniflagich darajalari bilan uyg'unlashgan tabaqalashtirilgan ta'lim dasturlarini hamda o'qitishning kredit-modul tizimini bosqichma-bosqich joriy etish;

Xulosa o'rinda, ta'lim sohasidagi islohotlar ham bugungi kunda o'zining dolzarbligi hamda amaliy ahamiyati bilan boshqa sohalardagi islohotlardan aslo qolishmaydi. Chunki ushbu sohadagi islohotlarni yanada keng ko'lamda davom ettirish davr talabidir.

## Hujjatlarni qabul qilish

1. Bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasasining 2-bosqichidan o'qishga qabul qilish uchun har yili oliy ta'lim muassasasi rektori (filial direktori) buyrug'i bilan qabul komissiyasi tuziladi.

Oliy ta'lim muassasasi rektori (filial direktori) qabul komissiyasining raisi hisoblanadi.

2. Bitiruvchilar har yili 5 iyuldan 25 iyulga qadar O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining rasmiy veb-sayti orqali onlayn ro'yxatdan o'tadilar.

3. Bitiruvchilar oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha ro'yxatdan o'tishida tizimga shaxsiy ma'lumotlarini kiritishi va quyidagi hujjatlarni yuklashi talab etiladi:

pasport yoki ID-karta nusxasi;

texnikumni bitirganlik to'g'risidagi hujjat va unga ilovaning nusxasi.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan vazirlikning rasmiy veb-sayti orqali bitiruvchilarni ro'yxatdan o'tkazish jarayonlari muvofiqlashtirilib boriladi.

4. Onlayn ro'yxatdan o'tgan bitiruvchilarning tizimga yuklangan hujjatlari oliy ta'lim muassasalari qabul komissiyalari tomonidan har yili 5 avgustga qadar o'rganib chiqiladi va o'rganish natijalari bo'yicha abituriyentlarning shaxsiy kabineti orqali ularga xabar beriladi.

5. Bitiruvchilar tomonidan topshirilgan hujjatlarning qalbakiligi aniqlanganda, u suhbatdan (talabalikka qabul qilingandan keyin aniqlansa, talabalikdan) chetlashtiriladi hamda hujjatlari belgilangan tartibda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuboriladi.

## Suhbat jarayonini tashkil etish va o'tkazish

1. Oliy ta'lim muassasasi rektori (filial direktori) har yili 10 avgustga qadar o'z buyrug'i bilan har bir ta'lim yo'nalishi bo'yicha alohida Suhbat komissiyasini tuzadi.

Suhbat komissiyasi 9 nafardan kam bo'lmagan tarkibda tuziladi va uning tarkibiga kadrlarning asosiy ish beruvchilari bo'lgan tashkilotlar va oliy ta'lim muassasasi bo'ysunuvi bo'yicha vazirliklar va idoralarning mas'ul xodimlari, sohaga taalluqli texnikumning malakali o'qituvchisi hamda boshqa oliy ta'lim muassasasining tegishli soha bo'yicha professor-o'qituvchisi kiritiladi.

2. Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha suhbat jarayoni to'liq videokuzatuv ostida o'tkaziladi va jarayon ota-onalar, kuzatuvchilar uchun ajratilgan alohida kutish joyiga ovozli tarzda onlayn translyasiya qilib boriladi.

Suhbat jarayoni to'liq va sifatli videokuzatuv ostida o'tkazilishini va videoyozuvlarning kamida uch yil oliy ta'lim muassasasida saqlanishini ta'minlash mas'uliyati shaxsan oliy ta'lim muassasasi rektori (filial direktori) zimmasiga yuklatiladi.

3. Bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha o'tkaziladigan suhbat jarayoni har yili 10 avgustdan 25 avgustgacha, oliy ta'lim muassasasi tomonidan belgilangan muddatda, Suhbat komissiyasi tarkibining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etgan taqdirda o'tkaziladi.

Suhbat o'tkazish muddatlari suhbat jarayonlari boshlanishidan kamida bir hafta oldin oliy ta'lim muassasasining rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

Suhbat jarayoniga jamoatchilik vakillari ham xolis kuzatuvchi sifatida jalb etilishi mumkin.

4. Belgilangan muddatlarda suhbatga kelmagan bitiruvchilarga shu o'quv yili uchun qayta suhbat o'tkazilmaydi va ular oliy ta'lim muassasasi bakalavriat ta'lim yo'nalishining 2-bosqichidan o'qishga qabul qilinmaydi.

Bitiruvchi uzrli sabablarga ko'ra (kasalligi, xizmat safarida bo'lganligi yoki oila a'zolarining vafot etganligini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etganda) suhbatda ishtirok eta olmaydigan bo'lsa yoki ishtirok etmasa, suhbat o'tkazilgan sanadan uch kundan kechikmay oliy ta'lim muassasasida tuzilgan qabul komissiyasiga murojaat etishi lozim. Mazkur toifadagi bitiruvchilar uchun suhbat jarayonlari to'liq yakunlanganidan so'ng bir hafta muddat ichida qo'shimcha suhbat o'tkaziladi.

5. Savollar oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi tomonidan ishlab chiqilib, qabul komissiyasi raisi tomonidan tasdiqlanadi.

6. Suhbat jarayonida Suhbat komissiyasining har bir a'zosiga ushbu Nizomga 1-ilovaga muvofiq namunaviy shakldagi bitiruvchining suhbat natijalarini qayd etish varag'i (keyingi o'rinlarda - suhbat natijalarini qayd etish varag'i) beriladi.

Suhbat komissiyasi a'zolari tomonidan suhbat natijalarini qayd etish varag'iga har bir bitiruvchi bilan o'tkazilgan suhbat natijasiga ko'ra ball belgilab boriladi va imzolanadi.

### **Texnikum bitiruvchilarini oliy ta'lim muassasasi bakalavriat ta'lim yo'nalishiga suhbat asosida qabul qilish uchun BAHOLASH MEZONLARI**

Suhbat jarayonida bitiruvchilarning har biriga

- 1) Mamlakatda o'z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish.
- 2) Bakalavriat ta'lim yo'nalishini tanlashda motivasiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko'rsatish).
- 3) Shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o'qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas'uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o'z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari).
- 4) Tanlangan bakalavriat ta'lim yo'nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi bo'yicha jami to'rtta savol beriladi.

Har bir variantda 4 tadan savollari mavjud bo'lib, har bir to'g'ri javob uchun 25 ball beriladi. Savollar uchun eng yuqori ball – 100 ballni tashkil etadi. Suhbat natijalari quyidagi mezonlar bo'yicha to'plagan umumiy bali quyidagicha baholanadi.

| T/r. | To'g'ri javob | Baho       | Xususiy ball |
|------|---------------|------------|--------------|
| 1    | 4             | A'lo       | 90-100       |
| 2    | 3             | Yaxshi     | 78-89        |
| 3    | 2             | Qoniqarli  | 67-78        |
| 4    | 1             | Qoniqarsiz | 0-66         |

| 25 balldan<br>Har bir savol<br>uchun | Berilgan javobiga qo'yiladigan talablar  |
|--------------------------------------|--|
| 20-25 ball                           | Agar suhbat davomida talabgor tomonidan har bir savolning mohiyati Qonunlar, president farmonlari, Hukumat qarorlaridan foydalanilgan va har bir savolga oid muammolarni har tomonlama tahlil qilgan holda ochib berilgan hamda javoblarni tushunarli tarzda bayon etgan va ilmiy ma'lumotlarni umumlashtira olish salohiyatini namoyon etgan bo'lsa. Berilgan savolga to'g'ri va to'liq javob bergan. Savolning mazmuni, mohiyati to'g'ri va izchil yoritilgan. Savolga javo berishda ijodiy yondoshilgan, javob mantiqiy yaxlitlikka erishilgan. |
| 15-20 ball                           | Agar savolning mazmuni ochib berilgan, meyoriy-huquqiy hujjatlardan foydalanilgan, lekin savollarga oid muammolarni har tomonlama to'liq tahlil etilmasa. Berilgan javobga to'g'ri javob berilgan. Savolning mazmuni to'liq yoritilgan. Qisqacha xulosa bergan. Fikrlarni sodda bayon etgan.   |
| 10-15 ball                           | Agar savolga javob berilgan bo'lsa, biroq fikrlar bayonida tarqoqlik kuzatilsa, javoblar qonun hujjatlariga amaliyot tahliliga to'liq asoslanmagan bo'lsa, savollarga oid muammolarni har tomonlama to'liq tahlil etmagan bo'lsa. Berilgan savolga to'g'ri javob berilgan, lekin berilgan savolning mazmuni to'liq yoritilmagan. Misollar bilan asoslanmagan.  |
| 0-10                                 | Agar talabgor tomonidan savolning mohiyati to'liq yoritib berilmasa, savolga tegishli qonunlar va amaliy materiallardan to'liq etarli darajada foydalanilmasa, hamda tahliliy xulosalar asoslanmagan bo'lsa. Berilgan savolga javob noto'g'ri yoki yuzaki javob berilgan. Savol bo'yicha aniq tasavvurga ega emas.   |

Muayyan ta'lim yo'nalishi (guruh) bo'yicha suhbat jarayoni yakunlangach Suhbat komissiyasi a'zolari tomonidan to'ldirilgan suhbat natijalarini qayd etish varaqlaridagi ballar hisoblab chiqiladi va shu asosida ushbu Nizomga 2- ilovaga muvofiq namunaviy shakldagi bitiruvchi bilan o'tkazilgan suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varag'i (keyingi o'rinlarda - suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varag'i) to'ldirilib, Suhbat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

Suhbat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varag'iga asosan Suhbat komissiyasining ishtirok etgan a'zolari tomonidan qo'yilgan ballarning o'rtachasi 67 ball va undan yuqori bo'lganda abituriyent suhbatdan o'tgan hisoblanadi.

Muayyan ta'lim yo'nalishi (guruh) bo'yicha o'tkazilgan suhbat natijalariga ko'ra suhbatdan o'tganlar ro'yxati shu kunning o'zida abituriyentlarga o'qib eshittiriladi.

Oliy ta'lim muassasasida suhbatlar o'tkazilishi davrida belgilangan tartibda apellyasiya shikoyatlarini ko'rib chiqish uchun apellyasiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyasiya shikoyatlari suhbat natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat ichida oliy ta'lim muassasasida to'g'ridan-to'g'ri yozma shaklda yoki Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining rasmiy veb-sayti orqali onlayn shaklda qabul qilinadi va appelyasiya komissiyasi tomonidan murojaat qilganlarning sonidan kelib chiqqan holda bir kundan uch kungacha bo'lgan muddatda videoyozuv asosida ko'rib chiqiladi.

Suhbat natijalariga ko'ra talabalikka tavsiya etilganlar to'g'risidagi ma'lumotlar natijalar e'lon qilingan kundan boshlab uch kun muddatda oliy ta'lim muassasasi rektori (filial direktori) tomonidan bo'ysunuvi bo'yicha vazirlik, idoraga taqdim etiladi.

Suhbat komissiyasining suhbat natijalarini qayd etish hamda suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varaqlari uch yil oliy ta'lim muassasasida saqlanadi.

## Suhbat jarayonida beriladigan namunaviy savollar to'plami

### 60710400 – EKOLOGIYA VA ATROF-MUHIT MUHOFAZASI (TARMOQLAR VA SOHALAR BO'YICHA) BAKALAVRIAT YO'NALISHI UCHUN KIRISH SUHBATI SAVOLLARI

#### I. Mamlakatda o'z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish.

1. O'zbekiston Respublikasida ekologiya sohasida qanday islohotlar olib borilmoqda?
2. Mamlakatimizda ekologiya sohasini rivojlantirish uchun qanday tadbirlar amalga oshirilmoqda?
3. Ekologiya sohasida qanday innovatsion texnologiyalardan foydalanilmoqda?
4. Antropogen o'zgargan hududlarni ekologik-huquqiy muhofaza qilish deganda nimalarni tushinasiz?
5. Respublikamizda atrof -tabiiy muhitni ekologik muhofazalashda qanday ishlar amalga oshirilmoqda?
6. O'zbekiston Respublikasi ekologik siyosatining huquqiy asoslariga nimalar misol bo'ladi?
7. Respublikamizda tabiiy resurslardan maxsus foydalanish qanday yo'lga qo'yilgan?
8. Mamlakatimizda texnogen buzilgan yerlardan samarali foydalanish bo'yicha qanday chora tadbirlar amalga oshirilmoqda?
9. O'zbekistonda eng muhim ekologik muammolarni sanab bering?
10. Orol va Orol bo'yi muammosi bo'yicha qanday ishlar amalga oshirilmoqda?
11. O'zbekiston Respublikasida nechta davlat buyurtmaxonasi mavjud?
10. Mamlakatimizda chiqindilarni qayta ishlash bo'yicha qanday islohatlar amalga oshirilmoqda?
13. Respublikamizda lalmikor yerlardan samarali foydalanish uchun sohada qanday chora tadbirlar amalga oshirilmoqda?
14. Respublikamizda nechta Milliy bog' faoliyat olib bormoqda?
15. Zomin tog' o'rmon qo'riqxonasi nima maqsadda tashkil topgan?
16. O'zbekiston Respublikasi oliy kengashi huzurida tabiat yer bag'rini muhofaza qilish bo'yicha deputatlar doimiy komissiyasi nechanchi yili tuzilgan.
17. O'zbekiston tekislik qismi qancha hududni o'z ichiga oladi?
18. Respublika Qizil kitobiga kiritilgan qanday hayvon turlarni ko'paytirish va qo'riqlash bo'yicha amaliy ishlar olib borilmoqda?
19. O'zbekiston Respublikasining «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonuni» qachon qabul qilingan? va uning ahamiyati.
20. O'zbekiston Respublikasining «Aloxida muhofaza qilinadigan tabiiy xududlar to'g'risidagi qonuni» nechanchi yilda qabul qilingan? va uning ahamiyati.
21. O'zbekistonning birinchi «Qizil kitob» i nechanchi yilda nashr qilingan bo'lib, unga umurtqali hayvonlarning nechta turi kiritilgan?



22. O'zbekiston Respublikasining «Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida» gi qonuni nechanchi yilda qabul qilingan? qonunning ahamiyati nimada?
23. O'zbekiston Respublikasi «O'rmon to'g'risidagi» qonuni qachon qabul qilingan?
24. O'simliklar bioxilma-xilligidan samarali foydalanish deganda nimani tushunasiz?
25. Yer kurrasini asrab qolishda o'simliklar bioxilma-xilligining qanday o'rni bor?
26. Ekologik monitoringning tadqiqot tamoyillari va usullari.
27. Ekologik monitoringdagi ustuvor jihatlar va mezonlar.
28. Barqaror rivojlanish va ekologik monitoring.
29. Ekologik monitoringning halqaro jihatlari.
30. Ekologik monitoring va ekologik auditning aloqadorlik mohiyati.
31. Ekologik monitoring turlari.
32. Ekologik monitoringni tashkil etish va bioekologik monitoring.
33. Geoekologik monitoring.
34. Biosferali monitoring.
35. O'zbekiston Respublikasida ekologik monitoring.
36. Sug'oriladigan mintaqalarda ekologik monitoring.
37. Tog' va tog'oldi mintaqalarida ekologik monitoring.
38. Cho'l-yaylov mintaqasida ekologik monitoring.
39. Shahar va geotextizimlardagi ekologik monitoring.
40. Ekologik vaziyat keskin hududlardagi ekologik monitoring.
41. O'zbekistonda cho'llashish muammolari monitoringi
42. Ifloslantiruvchi moddalarning transchegaraviy o'tishi va ularning monitoringi.
43. O'zbekistonda qishloq xo'jalik yerlari holatini monitoring qilish.
44. Ozon tuynigi va uning paydo bo'lish mexanizimi. Iqlim o'zgarishi va issiqxona effekti monitoringi.
45. O'zbekistonda tuproq ifloslaishi monitoringi.
46. Tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar keskinlashuvi.
47. Shahar va geotextizimlardagi ekologik monitoring
48. O'zbekistonda ekologik monitoringni tashkil qilish va undan foydalanish mohiyati nimada?
49. Aylanma harakatning buzilishi oqibatlari va ifloslanish natijasida iqlimning o'zgarishi.
50. O'zbekiston suv zahiralari haqida umumiy ma'lumot.

## **II. Bakalavriat ta'lim yo'nalishini tanlashda motivatsiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko'rsatish)**

1. Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi ta'lim yo'nalishini tanlashingizni sababi nimada?
2. Tabiat va jamiyat deganda nimani tushinasiz?
3. Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi ta'lim yo'nalishini bakalavriat bosqichida davom ettirishdan maqsad nima?
4. Mamlakatimizda Ekologik mutaxassis tayyorlashning qanday ahamiyati bor?
5. Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi mutaxassisi qanday bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak deb hisoblaysiz?
6. Atrof-muhitni muhofaza qilish va o'simlik resurslaridan oqilona foydalanishda qanday fanlarni bilishi kerak.
7. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilishda mutaxassis qanday usullardan foydalanadi?
8. Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi mutaxassisligi kasbida ishlashning qanday mas'uliyatli tomonlari bor deb hisoblaysiz?
9. Texnikumda siz ekologiya sohasiga oid qanday fanlarni o'zlashtirgansiz?
10. Oliy ma'lumotli ekologiya va atrof-muhit muhofazasi ta'lim yo'nalishini tomomlagan talabani maqsadi nima?
11. Ekologiyaning vazifalari nimalardan iborat?
12. Sanoatlashgan xududlarning ekologik holatlari qanday o'zgaradi?
13. Bu sohada qanday fanlarni o'zlashtirish muhim deb hisoblaysiz?
14. Siz ekologiya sohasida ishlaganingizda ishni nimalardan boshlaysiz?
15. Hozirgi zamon ekologik muammolari nimalardan iborat?
16. Siz bugungi kundagi ekologik muammolarga qanday ta'sirlar sabab bo'lmoqda deb o'ylaysiz?
17. Bugungi kundagi iqlim o'zgarishiga sabab nima?
18. Mahalliy ekologik muammolarga nimalar kiradi?
19. Global ekologik muammolarga qanday omillar sabab bo'ladi?
20. Mahalliy aholining ekologik madaniyati to'g'risida nimalarni bilasiz?
21. Atmosfera tarkibi va ifloslanish manbalari.
22. Suvning biosfera va xalq tarmoqlaridagi ahamiyati
23. Tabiiy resurslar va ulardan oqilona foydalanish deganda nimani tushunasiz?
24. O'rmon resurslarini kamayib borish sabablari?
25. Aylanma harakatning buzilishi oqibatlarini va ifloslanish natijasida iqlimning o'zgarishi.
26. Ekologik muammolarning ko'lami va dolzarbligi
27. O'zbekistonda suvni ifloslovchi asosiy tarmoqlar haqida nimalarni bilasiz?
28. O'simlik olamini muhofaza qilish deganda nimani tushunasiz?
29. Hayvonot olamini muhofaza qilish deganda nimani tushunasiz?
30. Biosfera haqidagi ta'limot, biosfera chegarasi

31. Tabiiy muhitni rivojlanishiga ta'sir qiluvchi antropogen omillar. Texnosfera, ionosfera
32. Tabiiy resurslarga bo'lgan ehtiyoj va demografik muammolar o'rtasidagi bog'liqlik
33. Ekologik inqiroz energetik, oziq-ovqat muammolari va ularni yechish yo'llari
34. O'zbekistonda chiqindilarni hosil bo'lish manbaalari va sabablari ularni qayta ishlash, utilizatsiyalash.
35. Chiqindisiz texnologik jarayonlarni tashkil qilishning asosiy prinsiplari.
36. Suv resurslarini ifloslanishdan muhofaza qilishga qaratilgan chora-tadbirlar?
37. Atmosfera havosining xossalari. Gazlarning aylanma harakati ( $\text{CO}_2$ , N,  $\text{O}_2$ ,  $\text{H}_2\text{O}$  va h.k.)
38. Muhit muvozanat va ekologik omillar
39. Geografik muhit muvozanati va ekologik omillar
40. Yer osti suvlarining umumiy tasnifi.
41. Suv omborlari nima? Ular haqida tushuncha bering
42. Dunyo okeani suvining xarakti
43. Muzliklar, yer osti va gidrotemal suvlar.
44. Ko'llarning umumiy tasnifi.
45. Yer yuzida suv zahirasi qancha va ularni joylanishi.
46. Ifloslangan suvlarni tozalash yo'llari?
47. Orol dengizining fojiasi
48. Neyston, pleyston va nekton guruhlari.
49. Suvning asosiy ekologik omillari va ularni organizmlarga ta'sir qilish qonunlari.
50. Dunyo okeani va dengizlarning ekologik omillari.

### **III. Shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o'qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas'uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o'z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari)**

1. Ekologiyaning predmeti, vazifalari, uning rivojlanishida O'rta Osiyo olimlarining roli.
2. Tabiatga antropogen omillarning ta'siri.
3. O'zbekistonda cho'llashish jarayoni va uning kelib chiqish sabablari
4. Ekologik muammolarni yechishda uzluksiz ekologik ta'limning roli.
5. Tabiatni muhofaza qilishda ekologik madaniyatning roli.
6. Suvlarni ifloslanishi va ifloslangan suvlarni tozalash usullari. Markaziy Osiyoda ichimlik suvi muammolari.
7. Demografiya va aholi soning o'sishi.
8. O'zbekistondagi ekologik muammolar va ularni yechish yo'llari.
9. Iqlim o'zgarishi muammolari.
10. Biosferada suvning ahamiyati.
11. Biologik xilma-xillik va ularni muhofaza qilish.
12. Ekologik xavfsizlikni ta'minlash va ekologik boshqaruvni amalga oshirishda xalqaro hamkorlikning ahamiyati.
13. O'rta Osiyo va O'zbekistonda suvdan foydalanish. Orol va orolbo'yi muammolari.
14. Ekologik muammolarni yechishda xalqaro hamkorlikning roli.
15. O'simliklarning muhit omillariga moslashuvi.
16. O'simliklarga issiqlikning ta'siri
17. Yorug'likning o'simliklar hayotidagi ahamiyati.
18. O'simliklarning ayrim funksiyalariga issiqlikning ta'siri.
19. Suv - o'simliklar hayoti uchun zarur sharoitlardan biri ekanligi. Suvning biosferadagi aylanma xarakati.
20. Harorat omili. O'simliklar haroratining atrof-muhit haroratiga bog'liqligi.
21. Hayvonlarning morfologik tuzilishi
22. Hayvonlar mavsumiy populyatsion dinamikasi
23. Hayvonlarning tabiatdagi ahamiyati
24. Hayvonlarning inson hayotidagi ahamiyati
25. Muhit omillarining tasnifi va ta'rifi.
26. Suv quruqlik jonzotlarining yashash omili.
27. Inson, jamoa va davlatlarda tabiatdan foydalanishning qanday ekologik talablari bor?
28. Sayyoramiz kelajak ekologik holatini bashorat qilishda aholi sonining rolini tushuntiring?
29. Sayyoramiz kelajak ekologik holatini bashorat qilishda ishlab chiqarishning rolini tushuntiring?
30. Sayyoramiz kelajak ekologik holatini bashorat qilishda qishloq xo'jaligining roli.

31. Sayyoramiz kelajak ekologik holatini bashorat qilishda tabiiy resurslarning rolini tushuntiring?
32. Sayyoramiz kelajak ekologik holatini bashorat qilishda qanday asosiy omillarni bilasiz?
33. O'zbekistonda demografik jarayonlarning rivojlanishining salbiy va ijobiy ta'sirlari qanday?
34. Shaharlarga qo'yiladigan ekologik talablar.
35. Shahar va sanoat rayonlarida atmosfera havosiga qo'yiladigan talablar.
36. Urbanizatsiya va inson salomatligi.
37. Urbanizatsiya jarayoni va uning ekologik oqibatlari.
38. Shahar va sanoat muhitini asosiy ifloslantiruvchi manbalar.
39. Shahar muhtida o'simliklarning ro'li?
40. Urbanizatsiya jarayoni.
41. Sanoat korxonalaridan oqilona foydalanish.
42. Shahar va sanoat zonalaridagi ekologik vaziyatni yaxshilash
43. Shovqin. Shahar havosining shaharliklar salomatligiga ta'siri.
44. Insonlarni tuproqlarga ta'siri va uning oqibatlari.
45. Shahar va sanoat rayonlarida suvlarga qo'yiladigan talablar.
46. Shahar va sanoat chiqindilari va ularni utilizatsiya qilish.
47. O'simliklarning yorug'lik sharoitlari o'zgarishiga nisbatan moslanishlari.
48. SO<sub>2</sub> va yorug'lik tomonidan fotosintezning chegaralanishi.
49. Shahar ekosistemalari. Sanoat va transportning tabiatga ta'siri.
50. O'simliklar, hayvonlar va mikroorganizmlarda moddalarning aylanma harakatidagi roli.

#### **IV. Tanlangan bakalavriat ta'lim yo'nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi**

1. Global ekologik muammolar.
2. Organizm yashashi uchun asosiy ekologik muhitlar, organizmlarning moslashuvi.
3. Tabiiy resurslar klassifikatsiyasi.
4. Populyatsiya to'g'risida tushuncha.
5. Cheklovchi omillar, turning chidamlilik darajasi, ekologik valentlik.
6. Biotsenoz to'g'risida ma'lumot. Tabiatda moddalarning aylanma harakati.
7. O'zbekiston qo'riqxonalari: ularning biologik hilma-hillikni asrashdagi roli.
8. Tuproq ekologik omili va uning tirik organizmlar uchun ahamiyati. Suksessiya jarayoni va uning mohiyati. Suksessiya etaplari.
9. Biosfera va uning tarkibiy tuzilishi. Biosferada moddalarni aylanma harakati.
10. Ekosistema haqida tushuncha. "Biogeotsenoz va ekosistema" tushunchasiga munosabat (Sukachev, Tensli).
11. O'zbekistondagi milliy bog'lar, buyurtmaxonalar va ularning ahamiyati.
12. Ozon ekрани va uning tirik organizmlar uchun ahamiyati.
13. O'simlik va hayvonlarni muhofaza qilishda "Qizil kitob"ning ahamiyati.
14. Markaziy Osiyoda ichimlik suvi muammolari.
15. Yorug'lik va fotosintez.
16. O'simlik bargining yorug'lik omili ta'siri natijasida anatomik moslashuvi.
17. Yorug'likka nisbatan o'simliklarning ekologik guruhlari.
18. O'simliklarning fotoperiodik reaksiyasi
19. Hayvonlarning anatomik tuzilishi
20. Hayvonlar ko'payishi va rivojlanishi
21. Biotik omillarning turlari.
22. Hayvonlar ekologiyasining rivojlanish tarixi, maqsadi va vazifalari, boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va metodlari.
23. "Hayvonlar ekologiyasi" fanining qishloq xo'jalik zararkunandalaridan qarshi kurashdagi roli.
24. Asosiy iqlim omillarining ta'rifi.
25. Yorug'likning ekologik ahamiyati.
26. Atrof-muhitni muhofaza qilishda barqaror rivojlanishni roli qanday?
27. Barqaror rivojlanish bo'yicha Butunjahon sammitda qanday xo'jjatlar qabul qilingan?
28. Barqaror rivojlanish konsepsiyasi tushunchasi nima?
29. Barqaror rivojlanish talablari va ularni O'zbekistonda qanday tadbiiq qilinmoqda?
30. Barqaror rivojlanish ta'limi va tarbiyasi holati qanday
31. Barqaror rivojlanishning ekologik va iqtisodiy jihatlarini tushuntiring?
32. G.X. Bruntlendning barqaror rivojlanish konsepsiyasining mazmuni va mohiyati tushuntiring?
33. Iqtisodiy-ijtimoiy-ekologik majmualii barqaror rivojlanishning kelajak istiqbollari

- haqida nimalarni bilasiz?
34. Insoniyatning rivojlanish potensialida aholi turmush darajasi va sifatining ahamiyati qanday?
  35. Mamlakatimiz barqaror rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan antropogen jarayonlarni tushuntiring?
  36. Mamlakatimiz barqaror rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan tabiiy jarayonlarni tushuntiring?
  37. Respublikamizda barqaror rivojlanishga oid qanday huquqiy aktlar qabul qilingan?
  38. Tabiat, jamiyat va iqtisodiy rivojlanish barqarorligini ta'minlashning ekologik jihatlarini tushuntiring?
  39. Tabiatdan foydalanishning ekologik prinsiplari, qoidalari va qonuniyatlarini tushuntiring?
  40. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning qanday samarali ko'rsatkichlari mavjud?
  41. "Ekologik iz" atamalarini barqaror rivojlanishda ishlatish yo'llarini ayting?
  42. "Yer sig'imi" atamalarini barqaror rivojlanishda ishlatish yo'llarini ayting?
  43. O'zbekistonda shahar va sanoat rivojlanishning atrof-muhitga ta'siri.
  44. Sanoatlashgan shaharlar ekotizimi. Sanoatlashgan shahar ekotizimining o'ziga xosligi, uning tabiiy ekotizimlar bilan o'xshashligi va farqi.
  45. Shahar va sanoat rayonlarida tuproqlarga qo'yiladigan talablar.
  46. Shaharlarning ekologik zonalarga ajratish.
  47. Shahar va sanoat ekologiyasi fanining shakllanishi. Shahar va sanoat ekologiyasining fanlararo aloqadorligi.
  48. Mamlakatimizda ekologik siyosatning boshqarilishi.
  49. Ekologik omillar va ularning klassifikatsiyasi
  50. Tabiiy landshaftlar va industrial landshaftlar

Kafedra mudiri:



L. Karshibayeva